

## BUXORO VILOYATI SHAROITIDA YOSH INTENSIV PAKANA OLMA BOG‘LAR BARPO QILISH VA SAMARALI TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULIDA FOYDALANISH

**Ismoilov Asrorbek O‘tkirbek o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

E-mail [ismoilovasrorbek15@gmail.com](mailto:ismoilovasrorbek15@gmail.com)

**Oripov Oybek Odiljon o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

**Komiljanov Bobur Mansurbek o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti

Agronomiya va biotexnologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida yosh intensiv pakana olma bog‘larini barpo qilish va ayni paytda eng samarali sug‘orish, ya’ni tomchilatib sug‘orish usulidan va texnikasidan foydalanish samaradorligi atroflicha o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha tomchilatib sug‘orishni yosh intensiv pakana bog‘larida 2-3 runaro va sug‘orish tomizgichlar daraxt tanasidan 0,3-0,6 metr masofada bo‘lishi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** tuproq, iqlim, shroiti, tomchilatib sug‘orish, intensive bog‘, pakana daraxt, sug‘orish usuli va me‘yori, o‘sish rivojlanishi, hosildorlik, samaradorlik.

### ABSTRACT

In this article, in the soil-climatic conditions of the Bukhara region, the effectiveness of planting young intensive small apple orchards and using the most effective irrigation method and technique at the same time, that is, drip irrigation, has been thoroughly studied. According to the results of the research, it was determined that drip irrigation should be done 2-3 times a year in young intensive pakana gardens, and irrigation drippers should be at a distance of 0.3-0.6 meters from the

**Key words:** Soil, climate, conditions, drip irrigation, intensive garden, small tree, irrigation method and rate, growth development, productivity, efficiency.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье в почвенно-климатических условиях Бухарской области подробно изучена эффективность посадки молодых интенсивных мелкоплодных яблоневых садов и использования при этом наиболее эффективного способа и техники орошения, то есть капельного орошения. По результатам исследований установлено, что в молодых интенсивных садах паканы капельный полив необходимо проводить 2-3 раза в год, при этом поливные капельницы должны находиться на расстоянии 0,3-0,6 метра от ствола дерева.

**Ключевые слова:** почва, климат, условия, капельное орошение, интенсивный сад, маленькое дерево, способ и норма орошения, развитие роста, продуктивность, эффективность.

## KIRISH

Olma (*malugdomedtica*) ko'p yillik meva daraxti bo'lib, intensive pakana bog'larida 25-30 yoshida bo'l balandligi 2,5-3,5 metrgacha yetadi. Buxoro viloyatida mavjud olma pakana va yarimpakana intensiv navlari parvarish qilinadi va bir tup daraxtdan 10-15 kg. ustun ko'rinishida o'sadiganlari esa 5-6 kg sifatli meva beradi. Intensiv bog'lar Buxoro vilyati tuproq iqlim sharoitida intensive pakana olma navlaridan asosan Goldenur, Jeremi, Fuki va o'rta o'suvchi navlarida Golden delishes, Koret kabi navlari yetishtiriladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, olma daraxtlari Buzoro iqlim sharoitiga moslashgan bo'lib, kunduzi issiq, kechasi salqin sharoitida ham yaxshi rivojlanadi va -40 gradusda soviqgacha chiday oladi. Olmani pakana daraxtlari odatda aprel oyida to'liq gullab bo'ladi, mevasi esa avgustning oxiri, sentabrning o'rtalarigacha rivojlanadi. Mevasi o'ziga mos keladigan rangga ega bo'ladi. Shuningdek, intensive olma navlarini rivojlanish va o'suv davrida doimiy ravishda namlik va o'zidagi moddalar ta'minlanishi talab etiladi. Intensiv pakana olma daraxtlarida muttasil meva mo'l va sifatli hosil olish uchun o'suv va rivojlanish davrida parvarishlash chora-tadbirlari o'z vaqtida sifatli o'tkazish talab eriladi, Intensiv pakana olma daraxtlari uchun tuproqning g'ovakligi o'rtacha suv o'tkazuvchanligi yaxshi PH ko'rsatkichi 6,5 atrofida bo'lgan tuproqlar mos keladi va olma daraxti yaxshi rivojlanib mo'l va sifatli hosil beradi. Olma daraxtlari ya'ni intensiv pakana olma navlarini sizot suvlari sathi 2,5 metrdan baland bo'lgan maydonlarda ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, olmani pakana intensiv navlarini sizot suvlari sathi yer yuzasidan 1,5 metr past joylashgan maydonlarda ekish tavsiya etiladi, Yuqori va sifatli olma hosil olish imkoniyatiga ega bo'ladi. (1.2.3)

Olma intensiv pakana ko'chatlarini ekish va nav parvarishlash

Intensiv pakana olma navlarini nihollari meva ko'chatzorlarda talab etiladigan parvarishlash agrotexnikasi asosida yetishtiriladi. Muayyan tuproq iqlim sharoitida

mos keladigan yuqori hosildorlik va yaxshi sifat ko'rsatkichlarga ega ko'chatlar maxsus ko'chat saqlanadigan joylarda saqlanadi va erta bahorda ochiq maydonlarga o'tqaziladi. Intensiv pakana olma bo'glarida ko'chatlar oldindan tayyorlangan chuquqlarga ekiladi. Intensiv pakana olma ko'chatlarini 3,0x1,0 m, 3,0x1,5 m., 3,0x2,0 m., 4,0x1,0 m, 4,0x1,5 m va 4,0x2,0 m. maydonlarga o'sish kuchi payvandtagi hisobga olgan holda o'tkaziladi. Intensiv pakana olma bog'lariga 1 gektar maydonga 1667 ta -3300 dona sifatli va to'liq ildiz tizimli shakllangan ko'chatlar o'tqazish tavsiya etiladi. O'tqazishdan so'ng ko'chatlarni sug'orish tavsiya etiladi.

Intensiv pakana olma daraxtlarini navdalarini kesish erta bahorda o'tqazilishi yaxshi natija beradi. Intensiv pakana olma navlarida kam quyosh nurlarini tanani shox-shabbalariga yaxshiroq uchun ularni novdalarini olma pishishigacha ya'ni 1 oy oldin kesish mumkin. Shuni alohida ko'rsatish zarurki, Intensiv pakana olmalarda bachki navlarida doimiy ravishda olib tashlanadi.

Yerni ko'chat ekishga tayyorlash. Intensiv pakana olma ko'chatlarini ekishdan oldin yerga 250-300 kg. gacha miqdorda azot 400-600 kg. miqdorda kaliy va fosfor o'g'itlarini solib ishlov berish yaxshi natija beradi. Intensiv olma navlarini ko'chatlarini o'sishi sayin beriladigan mahalliy va mineral o'g'itlarning miqdori ko'payadi. Yosh pakana olma daraxtlariga (1-4 oylik) yil davomida 90 kg ga azotli (N), 30 metrga fosforli 120 kaliyli, 120kg ga kaliyli o'g'itlar berish tavsiya etiladi.

Yosh pakana intensive olma daraxtlarini zararli organizmlardan himoya qilish uchun ulani kimyoviy vositalar yordamida zararsizlantish yaxshi natija beradi.

Pakana intensiv ollma bo'glarine tomchilab sug'orish oxirgi yillarda intensiv pakana olma bog'larine eng samarali sug'orish usuli sifatida tomchilatib sug'orish usulini qo'llash yaxshi natija beradi va daraxtlarni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi ancha oshish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqlimi issiq bo'lgan va nishabli mintaqalarda mikroiklim sharoitlarni yaratish uchun yomg'irlatib sug'orish usulini qo'llash ham tavsiya etiladi va yaxshi samara beradi.

Tovchilatib sug'orish tizimli o'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyojga teng miqdordagi suvning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallangan sug'orish tarmog'i hisoblanadi.

Tomchilatib sug'orishni boshqa sug'orish usullaridan farqi shundan iboratki, suv ekinning, jumladan, mevali daraxtlarning ehtiyojiga mos ravishda dala bo'ylab bir maromda beriladi. Mevali bog'larda pakana olma daraxtlari bir xilda namlanadi, tuproqda esa ortiqcha namlik yuzaga kelmaydi.

Intensiv pakana olma bog'larine sug'orilganda har muayyan daraxt qatoriga bir gug'orish shlangi va har bir (yosh) daraxt yoniga bir yoki ikkitadan tomizgich o'rnatish tavsiya qilingan va bu pirovard natijada yaxshi natija beradi. Agar ikkitadan tomizgich

oʻrnatilganda, ular orasidagi masofa 0,6-1,0 merni ( daraxt tanasida uzoqligi 0,3-0,6 metr) tashkil qilishi lozim.

Shuni alohida qayd etish lozimki, yosh intensive pakana olma bogʻlarini mahsuldorligini oshirish maqsadida tomizgichlarning suv sarfi asosan tuproqning suv oʻtqazish qobiliyatini inobatga olgan holda tanlanadi. Koʻpgina oʻtkazilgan maʼlumotlar va tadqiqotlar asosida tomizgich suv sarfi 2-4 k/soat boʻlgan variantlar eng maqbul sanaladi va bu meʼyorda suv sarfi eng maʼqul sanaladi. Sugʻorishlar orasidagi muddat ham asosan tuproq turini inobatga olingan holatda belgilanadi. Buxoro viloyati issiq iqlim sharoiti yosh intensiv pakana olma bogʻlarida sugʻorish muddatini har 1-2 kunaro oʻtqazish yaxshi natija beradi. Suv oʻtkazuvchanligi ogʻir boʻlgan tuproqlar sharoitida intensiv olma navlarini yetishtirish tavsiya qilinmaydi, shuningdek, Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida yosh intensiv pakana olma daraxtlarining biologic xususitalari, payvandtaglarni oʻsish kuchi, navlarini hosildorligi va sifat koʻrsatkichlarini inobatga olib, tomchilatib sugʻorish eng samarali sugʻorish usuli boʻlib, yosh pakana olma daraxtlarida muttasil moʻl va sifatli hosil olish garovi hisoblanadi. (4.5.6)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Artikova X.T., Yunusov R.Yu., Salimova X.X., Климатические условия и растительность субтропических условия и растительность субтропической теплой и жаркой пустыни. ВКН.: Проблемы рекультивации отходов быта промышленность и сельскохозяйственного быта, 215, 217, 222 стр.
2. Yunusov R.Yu., Gʻaniyeva F.A. (2021) Studying the different formations of apple trees in intensive orchards//. CENTRAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu.uz), 6(6). In Rus.
3. Gʻaniyeva F.A. (2021). ECONOMICAL. INNOVATIVE BASIS FOR THE CARE OF INTENSIVE STUDENT APPLE VARIETIES// CENTRAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu.Uz), 6(6). Извлечённощерезы://journal. Buxdu.uz/index.php/journal\_buxdu/article/view/3375
4. Yunusov R.Yu., Gʻaniyeva F.A. Ismoilov A.Uʻ (2021) Crowth and development of vegetatively propagated rootstocks of apple trees depending on planting dencity.//Capital of Sciyens”). In Rus.
5. Atayeva Z., Yunusov R., Nazarova S., Gʻaniyeva F. (2020) INFLIENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNEES ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PER TREESS IN INTENSIVE ORCHARDS//
6. Aripov A., Aripov A.I. Urugʻli mevalilar. T., 2015, 218 bet.